

Kitob – ma’naviy ozuqa beruvchi manba

Badiiy asarlar ruhiyat ozig‘i, u insonni ezgulikka yetaklab, ma’naviy yuksaltiradi. Kitob qalbgga nur beradi, qalbi go‘zal insonning ko‘zi ravshanlashadi. Olamni o‘z shaxsiy qarashlari bilan ko‘radi, atrof muhitdagi voqea-hodisalarga ongli yondashadi, to‘g‘ri yo‘l ila baxt-saodat topadi. Dono xalqimiz ta’kidlaganidek, ona tabiatni oftob isitsa, inson qalbini kitob isitadi, yoritadi va nurlantiradi.

Kitobga “Tafakkurning tolmas qanoti ”,- deb ta’rif berishganida ma’naviy olamni yoritish, yaratuvchanlikka, fikriy uyg‘oqlikka undashi nazarda tutilgan bo‘lsa, ajab emas. Shu bois buyuk bobolarimiz bola tarbiyasida badiiy kitobning o‘rni muhimligini, kitobni nihoyatda qadrlash, bebaho adabiy merosdan foydalanish kerakligini ta’kidlab o‘tganlar. Xonodonlarda kitob eng katta boylik sifatida qadrlanib, avloddan-avlodga yetkazilgan. Shu ma’noda biz tarixan ulkan madaniyatga ega xalqning bilimi kuchli, ma’naviyati yuksak avlodlarimiz, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kitob paydo bo‘lgandan beri insonga sodiq do‘st kabi hamkorlik qilib keladi, kitob hamma davr va xalqlarning eng ulkan kashfiyoti bo‘lib, ajdodlar tajribasini jamlash va jamg‘arishga ko‘mak beradi.

Kitob barcha davrlarda bolalarning dunyoni anglashi, hayotda o‘z o‘rnini topishga ko‘makchi bo‘lib kelgan asosiy manbadir.

Kitob-bola qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat odamlarga mehr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlangan.

Kitob - tarbiya vositasi, komillikka yetaklovchi omil, qorong‘ulikdan yoruglikka eltuvchi chiroq, tafakkur durdonasini yorituvchi shu’la, desak mubolaga bo‘lmaydi.

Badiiy asar zamirida millat hayoti, ruhiyati, kishilarning xarakteri, qiyofasi. g‘ururi, Vatanga muhabbat va iftixor tuyg‘usi, or-nomusi, qadr-qimmat, fidoyilik kabi fazilatlar yotadi. Bunday ma’naviy fazilatlarni yosh avlod qalbiga ko‘chirish, ongiga singdirish, albatta kitob orqali amalga oshiriladi.

O‘zining fantastik-sarguzasht asarlari bilan yosh avlod qalbidan joy olgan bolalar ijodkori X. To‘xtaboyevning «hikoya, qissa va romanlari ham bundan mustasno emas. Adibning “Sariq devni minib” qissasida o‘qish, ilm cho‘qqilarini egallash, insonning o‘z orzusi, ezgu niyatiga erishishida mehnat, izlanish, tinimsiz harakat, halollik, poklik, to‘g‘ri so‘zlik muhim ekanligi, hayoliy orzularga berilish, yengil-yelpi hayot kechirish, mehnatsiz va ilmsiz maqsadga erishib bo‘lmaslik kabilar qiziqarli syujet qurilishida tasvirlangan. Asar voqealari - uning qahramoni, barcha tafsilotlar ishtirokchisi va guvohi bo‘lmish Hoshimjon tilidan bayon qilinadi. Adib Hoshimjon hikoyasi orqali uning hayot yo‘lidagi sarguzashtlari, o‘ziga xos xarakteri, ruhiyati, ma’naviy qarashlarini ochib beradi. Hoshimjon obrazi orqali bolalarga xos o‘yinqaroqlik, xayolparastlik, taqlidchilik, soddalik, beg‘uborlik, dovyurak va epchillik, shuningdek, qarama-qarshi hislatlar namoyon qilinadi. Hoshimjonning bir-biridan ajoyib va g‘aroyib sarguzashtlarni boshidan kechirishi, xatti-harakatlarining ijobiy tomonga o‘zgarishi sehrli qalpoqcha vositasida amalga oshiriladi. Sehrli qalpoqchaning ishtiroki hayotda yengil-yelpi yashashga yo‘l axtargan, dangasa, yalqov, yolg‘onchi hamda yo‘lidan adashgan bolalar – “hoshimjonlarni” to‘g‘ri yo‘lga boshqaradi.

Yerga ursa ko‘kka sapchiydigan kichik qahramon xayoliy orzularga berilib, sehrli qalpoqcha yordamida o‘qimasdan turib odam bo‘lish, katta lavozimlarni egallash, mol-mulk, boylikka erishish mumkin deb o‘ylaydi. Hatto, bu borada maktab direktori O. Azizov va o‘qituvchisi Qobilov bilan ham ko‘p bora tortishadi. Hali o‘qib-o‘rganmagan, ko‘p hollarda mushkul ahvolga tushib qolgan Hoshimjon sehrli qalpoqchasidan najot kutadi, unga yuzlanib: “Menga aql o‘rgat, yo‘l ko‘rsat”, - deya iltijo qiladi. Ammo sirdosh do‘sti sehrli qalpoqcha: “Aql sehrga bo‘ysunmaydi, bo‘yingga bo‘y qo‘shganim bilan aqlingga aql qo‘sholmayman, baribir o‘qib o‘rganishing, bilim egallashing kerak, Hoshimjon”, deb unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, bolalik beg‘uborlik deyishadi. Bolalikning betashvish onlaridan katta hayotga qadam qo‘yayotgan farzandlarimiz qo‘liga kitob tutqazaylik. Zero, ma’rifatli, ma’naviy boy va bilimli insonlargina

yurtni obod qiladi. Ma'naviy qashshoq, ilmi sayoz shaxsning esa elga foydasi tegmaydi. Ba'zi jihatdan jamiyatda xavfli kimsaga aylanadi.

Raxmatullayeva Sh.